



VI GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2019: CENTRAL ASIA

INTERNATIONAL
SCIENTIFIC PRACTICAL
CONFERENCE



Nur-Sultan (Astana), May 9-13th 2019



INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE
«GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2019: CENTRAL ASIA»
NUR-SULTAN, KAZAKHSTAN, MAY 2019

**Объединение юридических лиц в форме ассоциации
«Общенациональное движение «Бобек»**

**«GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2019:
CENTRAL ASIA»**

атты VI Халықаралық ғылыми-тәжірибелік
конференция
ЖИНАҒЫ

МАТЕРИАЛЫ

VI Международной научно-практической
конференции

**«GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2019:
CENTRAL ASIA»**

VI ТОМ

НУР-СУЛТАН – 2019

УДК 373

Pedagogik konfliktlar va ularni samarali hal etish yo'llari

Usarova Marg'uba Nazar qizi

Qarshi davlat universiteti magistranti, O'zbekiston

Ilmiy rahbar: Yo'ldoshev Nazar O'sarovich

Pedagogning mutaxassis sifatida salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi.

O'qituvchi-tarbiyachi yoshlarning etakchisi sifatida maktablarda torn ma'noda o'zining ijodiy vazifalarini to'liq bajarishni ta'minlashi va pedagogik yo'naltirilganligini shakllantirishi kerak.

Pedagogik jarayondagi muhim hodisalardan biri - **nizo** sanaladi.

Nizo - qarama-qarshi, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan kuchlar to'qnashuvi, ikki yoki undan ko'p taraflar orasida o'zaro kelishuvning yo'qligini, manfaatlar to'qnashuvini ifodalovchi ziddiyat.

Pedagogik nizo bu - pedagog va talaba, ota-ona, hamkasblar yoki rahbariyat o'rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi, o'zaro qarama-qarshilik o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi kelishmovchilik, tortishuv va mojarodir.

Pedagog har tomonlama tarbiyalangan, aqliy, ahloqiy, ma'naviy bo'lib, bilim doirasi keng, nutqi ravon, pedagogik bilim mahorat egasi bo'lishi lozim. O'qituvchining pedagogik bilim mahorati asosan sinf, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. O'qituvchi bilan o'quvchi, talabalar o'rtasida o'zaro jonli til, fikr olishuv, samimiy munosabat, hurmat izzat, asosiy maqsadga erishishga hamkorlik lozim. Pedagog o'z guruhida nechta bola bo'lsa, ularning har birining xarakterini, oilaviy muhitini, psixikasini, xulqi-atvorini, bilim saviyasini yutug'i va kamchiliklarini o'rganib, keyin shunga qarab har bir bolaga qanday yondashishi lozimligini bilishi kerak. Guraxlarda har-xil toifali bolalar uchraydi. Ularning har - biri o'z xarakteriga ega bo'ladi. Pedagog har bir bolani o'rganib chiqishi, ular bilan yakka (induvial) holda yondashib tanishib chiqishi kerak. Ayrim bolalar qobiliyatli, har tomonlama etuk faol bo'lishiga, ayrimlarining qobiliyati sust, layoqatsiz, ayrimlari serjahil bo'ladilar. Gurah rahbarining asosiy vazifasi o'ziga birlashtirilgan guruhdagi bolalarga tarbiyaviy ta'sirini tashkil etishi lozim. Sinf rahbari o'quvchilarga kompleks yondashishi lozim. Sinf rahbari ota-onalar bilan hamkorlikda bo'lib, bolalarning bilim darajasi qay darajada ekanini, ularning axloq-odobi, yutuqlari va kamchiliklari ularning tarbiyasi bilan shug'ullanadi. O'qituvchi tomonidan shularga e'tibor berilsa, pedagog bilan o'quvchi o'rtasida nizo paydo bo'lishni bartaraf etadi. O'quvchi-bilan o'qituvchi o'rtasida kontakt ya'ni masofa bo'lishi lozim. O'quvchi o'qituvchisiga nisbatan hurmat, ehtiromli bo'lishi, kerak. Nizo fani, pedagogika, psixoliya, va mologiya, ma'naviyat va sotsiologiya fanlari bilan chambarchas bog'liqdir va shu fanlar bilan birgalikda hamkorlikda ish olib boradi. O'quvchilarni har tomonlama tarbiyalaydi. Nizo fani shu fanlar bilan birgalikda o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida munosabatlarni, muomila odobi, bir-birini tushunish, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi xurmat, izzat, nizolarni bartaraf etish ko'nikmalarini o'rgatadi. Pedagogik nizo fani sifatida avalom bor o'qituvchining kasbiy-ahloqiy fazilatlaridan biri talabchan va adolatli bo'lishdir. O'qituvchi awolo o'ziga nisbatan talabchan bo'lmog'i kerak, shundagina uning bolaga nisbatan qo'yayotgan talablari

o'rinli, samarali bo'ladi. Pedagogning talabchanligi adolatlilik bilan o'zviy bog'liq bo'lmog'i lozim. SHu bilan birgalikda o'qituvchi adolatli bo'lishi, o'qituvchining axloqiy fazilati hisoblansa, ikkinchi tomondan o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sirini baholashning mezoni hisoblanadi. O'quvchining bilim saviyasini hamda xulqini baholashda ham o'qituvchidan adolatli bo'lish talab etiladi. O'qituvchi ma'suliyatli bo'lishi va uning zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash ma'suliyati yuklanadi. Pedagog mana shu yuqoridagilarga rioya qilib ish olib borgandagina o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida nizo paydo bo'lmaydi.

Pedagogik nizo tushunchasi

Pedagogik nizo bu o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida muammolar tortishuvlar, kelishmovchiliklar bo'lib o'qituvchi shu muammolarni oldini olishi, unga yo'l qo'ymasligi, va shu muammolarni echimini topishi kerak.

Pedagogik nizo bir qator belgilarga ega. Unga xos bo'lgan asosiy belgilar quyidagilardir:

- inqiroz;
- anglashilmo vchilik;
- kutilmagan hodisa;
- zo'riqish;
- noqulaylik;
- ichki yoki tashqi xavotir;
- bartaraf etish qiyin bo'lgan qo'rquv.

Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar:

- axborot omili;
- munosabat omili;
- hulq omili.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'qituvchilik kasbini er yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq darajada turadigan faxrli kasb hisoblaydi. A.Navoiyning fikricha gohida bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga o'zlik qiladi. Muallim esa, bir guruh bolalarga ilmu - adab o'rgatadi. Bu jarayonda muallim ko'p aziyat chekadi, mashaqqatlamini o'z boshidan kechiradi. SHu bois shogirdlar ustoz olidda umurbod qarzdor ekanliklarini his etishlari darkor. SHogird podsholik martabasiga erishsa ham, muallimga qulluq qilsa arziydi deydi. Hazrat A. Navoiy bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik sha'ni, qadr qimmatini, o'qituvchilik ma'suliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchan va adolatli bo'lishi o'qituvchining ma'naviy qiyofasi halololigi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlarini hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirishi bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliyot ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimiz doimo yaxshi niyat yaxshi orzu-istaklar bilan yashaganlar. O'zlaridan yaxshinom qoldirishga intilganlar. Pedagogik nizo psixologik nuqtai-nazardan olib qaraganda pedagogika va psixologiya fanlari bir-biriga o'zviy bog'liqdir. Ularning har ikkisi, bitta umumiy jarayonni-insonni psixik faoliyati hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. SHuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. SHaxs shakllanishida u yashayotgan muxit kishilar jamiyatning roli juda kattadir. **Birinchidan aytganda.** Ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur qoldiradi. O'qituvchi bolalarni psixikasini va xarakterini o'rganadi.

Psixologiyada 4 ta temperament mavjud. Har bir shaxs shu 4ta temperamentdan biriga ega bo'ladi.

1. Xolerik-temperament. 2. Melanxolik temperament. 3. Sangvinik temperament. 4. Flegmatik temperament.

Pedagogik nizolarning asosiy turlari

1. Ichki shaxsiy nizo.
2. Motivatsion nizo. Amalga oshirilmagan faoliyat nizosi.
3. Axloqiy nizo. SHaxslararo va guruhlararo nizolar.

Davomiyligiga ko'ra pedagogik nizolar bir necha turlarga bo'ladi. Ularning asosiy turlari quyidagilardir:

tezda yakun topadigan nizolar; kuchsiz, sust kechadigan nizolar; uzoq muddat davom etadigan nizolar; kuchli, tez kechadigan nizolar.

Pedagogika nizoning echimi va uni boshqarish texnologiyasi

Pedagogik nizolar, ziddiyatlarni, to'qnashuv, qarama-qarshilik mojarolarni pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida yuzaga kelmasligi uchun o'qituvchi ziddiyatlarini olidini ola bilishi lozimdir. Zamonaviy tarzda biz nizolarni boshqarishimiz ziddiyatlarni munosabatlarini to'g'ri echimini topishimiz kerak. Islom Karimov aytganidek: "Ilm" ma'rifat biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qolmaydi ham. Aql zakovatli yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakina, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erisha olamiz. Mustaqil O'zbekistonning kelajagi bo'lgan sog'lom avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat e'tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. SHunday ekan o'qituvchi, o'quvchi va talabaning shakllanish jarayonini zo'r havas va sinchkovlik bilan kuzatish lozim. U pedagogik jarayonni barqaror ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo'lishi kerak.

Jamiyatimiz keng qamrovchi bo'lib u erda turli xil xarakterdagi shaxslarni uchratishimiz mumkin. SHaxslararo nizolar albatta faoliyat turlarida namayon bo'ladi. Masalan guruh misolida ko'ramiz. Tasavur qiling bir guruhda iqtidorli talantli shaxslarimiz bor. Ular har bir mazmuni yaxshi o'zlashtirib mustaqil fikrlarini bildira oladilar, fikr doiralari keng bo'lganligi sababli u shaxslar o'rtasida to'qnashuv, majoro kelishmovchilik, nizolar yuzaga keladi. Har bir guruh a'zosi o'z fikrini to'g'riligini isbotlay oladilar bunday holatlarda nizoni boshqarish o'qituvchi tomonidan bartaraf etiladi. Har bir sohada shaxslar o'rtasida nizolarni ko'rishimiz mumkin. SHaxslar o'z ustidan ishlasa, fikrini isbotlay oladimi, ular nizolarni echimini ham topadilar.

O'zaro munosabatlarga kirishilganda nizoni yuzaga kelmasligini asosiy sabablari, o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, o'zaro til topishishi bir-birini tushuna olish lozim.

Har qanday faoliyatdan zerikish, garchan mumkin, faqat odam muloqotdan ayniqsa, uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy, qiyofasi, fazilatlarini, hattoki nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Har qanday muloqotlarning elementar funksiyasi suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Pedagogik nizolarni oldini olishda gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tenglaydi, eshitadi.

Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishga bog'liq ekan noto'g'ri tasawurlardan bir shuki, odamni muomola yoki muloqatga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib ta'sirchan gapirishcha o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni-tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi.

Pedagogik nizolarda adolatsizliklarga, ijtimoiy munosabatlardagi yakkahokimlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Pedagogik nizolarni hal etishda bir qator yo'l tutiladi.

Ular orasida eng samarali yo'llar quyidagilar sanaladi:

1. Nizoning ta'sir doirasini kengaytirmaslik.
2. Qulay echimlarni taklif qilish.
3. Man etilgan usullarni qo'llamaslik, shakllardan foydalanmaslik.
4. SHikoyatlar sonini qisqartirish.
5. Ikkinchi darajali masalalarni ham uzviy ravishda hal qilib borish.
6. Nizoga kirishgan sub'ektlar shaxsini kamsitadigan so'zlardan foydalanmaslik.

Pedagogik nizolarni hal etishda bir qator usullar ham qo'llaniladi. Ular orasida eng samarali usullar quyidagilar sanaladi:

Pedagogik jarayondagi muhim hodisalardan biri nizo bo'lib, ular yuzaga kelgan vaziyatlarda ijtimoiy munosabatlardagi yakkahokimlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Odatda **pedagogik nizolar** ikki usul:

- 1) pedagogik usul;
- 2) ma'muriy usul bilan hal qilinadi.

O'qituvchining imidji atrofdagilarga uning shaxsi to'g'risida "ma'lumot" berish bilan birga talabalarga samarali ta'sir ko'rsatadi. SHu sababli pedagogning imidjida soddalik, tartiblilik, bejirimlik aks etishi kerak.

Nizoni hal qilishning pedagogik va ma'muriy usullari

Nizoni hal qilishning pedagogik usullari:

- 1) suhbat;
- 2) iltimos;
- 3) ishontirish;
- 4) nizoga kirishuvchilarga qo'yilgan talablar yoki ishtirokchilarning xatti-harakatlari noto'g'riligini tushuntirish va b.

Nizoni hal qilishning ma'muriy usullari:

- 1) nizoga kirishuvchilar manfaatlarini kuch bilan bostirish;
- 2) ularni boshqa ishga o'tkazish;
- 3) nizo qatnashchilarini turli ko'rinishlarda o'zaro ajratish;
- 4) axloq komissiyasining qarori;
- 5) rahbar buyrag'i;
- 6) sud qarori.

Pedagoglar pedagogik nizo ishtirokchilariga pedagogik, pedagogik yordam ko'rsata olish imkoniyatiga ham ega bo'lishlari zarar. Bu borada ko'rsatiladigan yordam turlari quyidagilar sanaladi:

Pedagogik nizo sub'ektlariga ko'rsatiladigan pedagogik-psixologik yordam

turlari:

- Maslahat berish;
- Axborotli yordam ko'rsatish;
- Tashxislash;
- Amaliy treninglar uyushtirish.

Axloqiy nizo-axloq ijtimoiy ong shakllaridan biridir, u muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi-shaxslarning bir-biriga, jamiyatga, xalq mulkiga, oilaga ishlab chiqarish vositalariga, muayyan tartibga solinadigan hatti harakatlarda tizimida ko'rishimiz mumkin.

Shaxs muloqotda bo'lgani sari ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari umumiylik va o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir-birini bir qarashda tushunadilar yoki yarmiga jumladan fikr ayon bo'lib qoladigan bo'lib qoladi.

Ammo shunday muloqot tizimidagi teskari reaksiyalarni bir-biridan charchab gapiradigan gapining qolmasligi kabi vaziyatni ya'ni, shaxslar va shaxslararo ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Gurahlararo ziddiyatlar - odamning o'rtasidagi yoki shaxslararo munosabatlar asosan guruh sharoitida shaxs ma'lum insonlar davrasida, guruhda jamoada bo'lgan taqdirdagina ro'y beradi. Gurahlararo ziddiyatlar guruh a'zolarida liderlarni ko'rishimiz mumkin.

Lederlar: rasmiy va norasmiy bo'ladilar, rasmiy lider o'qituvchi tomonidan tanlangan guruh staristasidir, norasmiy lider boshqa guruhdagi shaxslarni o'ziga jalb qila oladigan boshqalarni o'ziga tortadigan shaxsdir. Bunday holatlarda rasmiy va norasmiy rasmiy lider o'rtasida nizo yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda har bir mutaxassis o'z kasbini mukamal darajada bilishi va seva olishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'ychieva G.U., Asadova E. Yoshlar va konfliktlar yechimi. Manual.T.2003
2. To'ychieva G.U. Yoshlar va konfliktlar yechimiga o'rganish. T.2008

УДК 378;(076)

**ЗАДАЧИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА
ПЕРЕДОВЫМИ ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ**

Юсупов Бекзод Эргашевич

Старший преподаватель, Каршинского
инженерно-экономического института

Я.Р.Хаметов, студент факультета
—Экономики, Карши, Узбекистан

Аннотация. В развитии Узбекской Республики уделяется большое внимание задаче подготовки конкурентоспособных специалистов, основанных на богатый духовный потенциал и общее человеческие ценности а также современные

МАЗМУНЫ
 СОДЕРЖАНИЕ
 CONTENT

Онғарбаева З.Б., Кандидат М., Данадилова Ж.Е. (Алматы, Қазақстан) РАЗРАБОТКА КОНСТРУКЦИИ СПЕЦОДЕЖДЫ ДЛЯ РАБОЧИХ ХЛЕБОПЕКАРНОГО ПРОИЗВОДСТВА.....	3
Жолдасбаева Ж.Б., Жунусова Р.М. (Нұр-Сұлтан қ, Қазақстан) «AUDIT EXPERT» БАҒДАРЛАМЫСЫНЫҢ МҮМКІНДІКТЕРІ МЕН АРТЫҚШЫЛЫҚТАРЫ.....	7
Жолдасбаева Ж.Б., Жунусова Р.М. (Нұр-Сұлтан қ, Қазақстан) КӘСПОРЫННЫҢ ҚАРЖЫЛЫҚ ЖАҒДАЙЫН ТАЛДАУ ТҮСІНІГІ, НЕГІЗГІ КӨРСЕТКІШТЕРІ ЖӘНЕ АҚПАРАТТЫҚ БАЗАСЫ.....	10
Базарбаева А.М. (Орал қ., Қазақстан) БІЛІМ БЕРУДЕГІ ЗАМАНАУИ ИННОВАЦИЯЛАРДЫ ЕНГІЗУ МӘСЕЛЕЛЕРІ.....	14
Usarova M.N., Yo'ldoshev N.U. (Qarshi O'zbekiston) PEDAGOGİK KONFLIKTLAR VA ULARNI SAMARALI HAL ETISH YO'LLARI	17
Юсупов Б.Э., Хаметов Я.Р. (Карши, Узбекистан) ЗАДАЧИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА ПЕРЕДОВЫМИ ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ.....	20
Мұсабек Ф.К., Казанкапова М.К., Ермагамбет Б.Т. (Нур-Султан, Қазақстан) РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ ТЕКСТИЛЬНОГО КОРДА.....	24
Садвакасова А.У., Инютин С.П. (Нур-Султан, Қазақстан) СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТИРОВАНИЕМ VPN СОЕДИНЕНИЯ МЕЖДУ УДАЛЕННЫМИ ОФИСАМИ.....	28
Әменова Д.М., Манат С.М. (Қарағанды қ., Қазақстан) ЖАРАТЫЛЫСТАНУ БАҒЫТЫНДАҒЫ ПӘНДЕРДІ АҒЫЛШЫН ТІЛІНДЕ ОҚЫТУ ҮШІН ҚОЛДАНЫЛАТЫН ӘДІС-ТӘСІЛДЕР.....	33
Жапар Қ.К., Шамекова М. (Алматы, Қазақстан) КУЛЬТИВИРОВАНИЕ СЛАДКОГО КАРТОФЕЛЯ (PROMOEA BATATASL.) НА ЮГО-ВОСТОКЕ КАЗАХСТАНА.....	37
Мұханбедия А.Т., Елеукешов А.Е. (Қарағанды, Қазақстан) СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПЛОТНОСТИ ПОРИСТЫХ ПОРОД.....	38
Бекбаев С.Ж., Туребаева Р.Д. (Нур-Султан, Қазақстан) ЦИФРОВОЕ ПОТОКОВОЕ ВИДЕО, СТАНДАРТЫ ВИДЕО И РАННЕЕ ПОКОЛЕНИЕ ВИДЕОКОДЕКОВ.....	40
Мадазизова Д.Р., Сафарова С.О. ГИГИЕНИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ.....	44
Хужанов У.Т., Мусурмонова А.Р. (Термез, Узбекистан) ПЕРИФРАЗА КАК СТИЛИСТИЧЕСКИЙ ПРИЕМ И ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ А.С. ПУШКИНЫМ.....	46
Садвокасова А.А., Дахбай Б. (Қарағанды қ., Қазақстан) ЛОГОПЕДИЯЛЫҚ САБАҚТАРДА БИОЭНЕРГОПЛАСТИКАНЫ ҚОЛДАНУ.....	48
Х. О. Абуев. (Наваи, Узбекистан) СОЦИАЛҢЫЙ ПОЛОЖЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ 80-Х ГОДОВ XX ВЕКА.....	51
Міхаленак А.У. (Віцебск, Беларусь) ПАВЫШЭННЕ ЭФЕКТЫЎНАСЦІ ТРЭНІРОВАЧНАГА ПРАЦЭСУ ЛЫЖНІКАЎ-ГОНШЧЫКАЎ У ПАДРыхТОЎЧЫМ ПЕРЫЯДЗЕ.....	56
Міхаленак А.У. (Віцебск, Беларусь) ПАВЫШЭННЕ ЭФЕКТЫЎНАСЦІ ТРЭНІРОВАЧНАГА ПРАЦЭСУ ЛЫЖНІКАЎ-ГОНШЧЫКАЎ У ПАДРыхТОЎЧЫМ ПЕРЫЯДЗЕ.....	61